

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
NEMIS FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**FONETIKA VA FONOLOGIYA FANLARINING TARG‘IBOTCHISI,
FILOLOGIYA FANLARI NOMZODI, PROFESSOR
ZIYOVUDDIN TOSHOV
tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan**

**“HOZIRGI GLOBALLASHUV DAVRIDA
FONETIKA VA FONOLOGIYANING
DOLZARB MUAMMOLARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman

20-oktyabr 2023-yil

Hozirgi globallashuv davrida fonetika va fonologiyaning dolzarb muammolari [Матн] D.H.Karimova - Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durдона, 2023. - 328 b.

Mazkur to'plamda Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi Toshov Ziyovuddin Badridinovichning 80 yillik hayoti va 57 yillik ilmiy faoliyati hamda 100 dan ortiq mamlakatimiz va xorijiy filolog-olimlari, olimning hamkasblari, shogirdlari, do'stlari va qarindoshlari tomonidan bildirgan fikr-mulohazalari va dil izhorlari bayon qilingan.

To'plam pedagogik va ilm-fan xodimlari, yosh ilmiy izlanuvchilar va boshqa kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Professor S.S.Saidov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

f.f.f.d. (PhD) D.H. Karimova

f.f.f.d. (PhD) M.M. Maxmudova

Taqrizchilar:

f.f.d. (DSC), dotsent Z.I.Rasulov

f.f.d. (DSc), professor D.H.Quvvatova

f.f.f.d. (PhD), dotsent Y.B. Ro'ziyev

KALENDAR QANDAY PAYDO BO'LGAN?

Xamidova M.H.

BuxDU dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz hozirda foydalanayotgan kalendar, ya'ni taqvim qanday paydo bo'lganligi, quyosh va oy taqvimlari, hamda yana asrlar davomida yaratilgan boshqa taqvim-kalendarlarning paydo bo'lish tarixi va ularning bit-biridan o'zaro farqli jihatlari atroflicha o'rganilgan.

Tayanch so'zlar: taqvim, kalendar, yil, oy, kun, shamsiy, qamariy taqvim, yulian taqvimi

Абстрактный. В данной статье изучается календарь, которым мы пользуемся сейчас, то есть как появился календарь, солнечный и лунный календари, а также история возникновения других календарей, созданных на протяжении веков и их отличия друг от друга. деталь.

Ключевые слова: календарь, год, месяц, день, солнечный, лунный.

Abstract. In this article, the calendar we use now, that is, how the calendar came about, the solar and lunar calendars, as well as the history of the emergence of other calendars created over the centuries and their differences from each other, are studied in detail.

Key words: calendar, calendar, year, month, day, solar, lunar

Taqvim tarixi — insoniyat sivilizatsiyasining uzviy ajralmas bo'lagi. Tashqi olam to'g'risidagi bilimlar ko'paygan sari va turli davrlarda xalq xo'jaligi ehtiyojlari bilan bog'liq ravishda taqvimlar takomillashib bordi. **Taqvim** yoki **kalendar** (lotincha: *calendarium* - "qarz daftari") - yil, oy, hafta va kunlar hisoblashni yuritish tizimi hisoblanadi. Quyosh, Oy, sayyoralarning ko'rinma harakati, kun bilan tunning almashinuvi, Oy fazalari va yil fasllarining davriy ravishda takrorlanib turishiga asoslanadi.

Taqvimning paydo bo'lishi odamning xo'jalik faoliyatini yuritish ehtiyoji bilan bog'liq. Odamlar Quyoshning chiqib botishini kuzatib — kun, Oy o'rog'ining avval kattalashib, so'ng kichrayishiga qarab — oy, yil fasllarining davomida Quyoshning ufqdan qanchalik ko'tarilishini kuzatib yil tushunchalariga kelishgan. Asta-sekin vaqtni yana ham aniqroq hisoblash ehtiyoji bilan soat, minut birliklari, mifologik an'analar asosida hafta tushunchasi kiritilgan. Vaqt hisobini to'g'ri yuritish uchun dastlabki rasadxonalar qurilgan, quyosh soati o'ylab topilgan.

Taqvim hisobining asosiy birligi - yil. Yil esa oylarga, oylar esa kunlarga bo'lingan. Bu 3 tushuncha 3 xil astronomik hodisa — mos tartibda Yerning Quyosh atrofida aylanishi, Oyning Yer atrofida aylanishi va Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi bilan bog'liq. Bu 3 hodisaning davomiyligi ancha murakkabligi yilni oylarga, oyni kunlarga bo'lishni murakkablashtiradi. Bu masala turli xalqlarda turli usulda hal etilgan va shu tarzda quyosh taqvimi (shamsiy taqvim), oy taqvimi (qamariy taqvim) hamda oy-quyosh taqvimi (shamsiyqamariy taqvim) ishlab chiqilgan. Quyosh taqvimi ning asosiy birligi - tropik yil. Uning uzunligi ketma-ket ikki bahorgi tengkunlik oralig'idan iborat bo'lib, 365, 2422 kun, ya'ni 365 kun 5 soat 48 min. 46 sek.ga teng. Dastlabki shamsiy taqvimdan foydalangan qadimgi misrliklar bir yilni 365 kun deb olishgan. Bir yil 30 kunlik 12 oyga bo'lingan va yil oxirida qo'shimcha 5 kun qo'shilgan. Qadimgi Rimda ham bir yilni 365 kun deb olingan, lekin yilning oylarga bo'linishi yana ham murakkabroq bo'lgan. Bundan tashqari qadimgi Misr va Rim taqvimlarida yil uzunligi tropik yildan taxminan 6 soatiga qisqa bo'lgani uchun bahorgi teng kunlik har 4 yilda 1 kunga surilgan va bu ham chalkashliklarga sabab bo'lgan. Ularni bartaraf etish uchun Rim konsuli Yuliy Sezar mil. av. 46-yilda yunon astronomi Sozigen taklifiga muvofiq taqvim islohotini o'tkazadi: har 4 yildan biri 366 kunlik (kabisa) deb qabul qilinadi. Bu taqvim Yulian taqvimi deb yuritiladi. Yulian taqvimida bir yil 12 oyga bo'linib toq oylar 31 kun, juft oylar 30 kun, faqat fevral oyi 28 kun (kabisa yili 29 kun). Dunyoning ko'p mamlakatlarida hozirgacha oylarning Yuliy taqvimdagi nomlari qo'llanadi

Yuliy taqvimda bir yil tropik yildan 11 daqiqaga 14 soniya ortiq bo'lgani uchun bu farq har 400-yilda taxminan 3 kunni tashkil qiladi. Bu farq yig'ilib 16-asrda 10 kunga yetgan, natijada bahorgi teng kunlik 11 mart ga to'g'ri kelib qolgan. Bu nomutanosiblik xristianlarning diniy

bayramlarini belgilashda chalkashlik keltirib chiqarar edi. Shuning uchun Yuliy taqvimdagi xatolikni tuzatish uchun Rim papasi Grigoriy XIII 1582-yil 24 fevralda italiyalik vrach va matematik Luidji Lullio loyihasi bo'yicha taqvim islohotini o'tkazadi: 1) 1582-yil 4 oktyabrdan keyingi kun 15 oktyabr deb olinadi va bahorgi teng kunlik 21 martga qaytariladi; 2) to'rtga bo'linadigan yillar Yuliy taqvimdagi kabi 366 kun deb olinadi; 3) har 400-yilda 3 kun chiqarib tashlanadi — 400 ga bo'linmaydigan yillar 365 kunlik (ya'ni oddiy) yil deb e'lon qilinadi. U Grigoriy taqvimi deb yuritila boshladi. Sanalarni Grigoriy taqvimiga muvofiq hisoblash yangi uslub deb ataldi. Sanalarni avvalgidek Yulian taqvimi asosida hisoblashda davom etish esa eski uslub nomini olgan. Grigoriy taqvimi 16-asrdan boshlab asta-sekin dunyoning ko'pchilik mamlakatlariga tarqaldi. O'zbekistonda ham u 1918-yil 14 fevraldan qo'llab kelinadi.

Yil uzunligi va oy-kunlarga bo'linish taqvimga muvofiq yuritilsa, yillar hisobi alohida kelishuv bilan belgilanishi lozim. Qachon birinchi yil deb olinishi bilan bu masala hal bo'ladi va istalgan sanani hisoblash imkoni tug'iladi. Bunday kelishuv taqvim bilan birga xronologiya deb ataladi. Grigoriy taqvimi qabul qilingan mamlakatlarning ko'pchiligida xronologiya Iso Masihning tug'ilgan kunidan boshlanadi, ya'ni Iso (as) tug'ilgan kun 1-yilning 1 yanvari deb qabul qilingan. Tarixning mana shu sanasigacha davri eski era (miloddan avval), keyingi davri esa yangi era (milodiy) deb ham ataladi.

Oy taqvimida asosiy birlik vazifasini sinodik oy o'taydi. Oy Yer atrofida aylanishi davomida Quyoshning to'g'risiga kelishi oy boshi deyiladi. Bu vaqtda Oy ko'zga ko'rinmaydi, 1—2 kundan keyin u g'arbda kechqurun o'tkir o'roq („yangi oy“) shaklida ko'rinadi. Oy taqvimida 12 oy bir yilni tashkil etadi. Sinodik oy 29,5306 sutka, ya'ni 29 kun 12 soat 44 min. 3 sek. bo'lgani uchun bir yil taxminan 354 kunga teng bo'ladi.

Hozir Oy taqvimi arab mamlakatlarida amal qiladi. 20-asrgacha u asosiy aholisi musulmon bo'lgan mamlakatlar, jumladan, bizning yurtimizda ham qo'llangan va hijriy (aniqrog'i hijriy-qamariy) taqvim deb atalgan. Hijriy taqvimda xronologiya payg'ambar Muhammad (as)ning Makkadan Madinaga ko'chib borgan (arabcha hijrat) kunidan boshlanadi. Bu sana Yulian taqvimida 622-yil 16 iyul juma kuniga to'g'ri kelishi aniqlangan. Hijriy taqvimda 12 oydan toqlari 30, juftlari esa 29 kun. Bunda bir yil 354 kun bo'lib, 12 sinodik oydan qisqa bo'lgani uchun har o'ttiz yildan 11 tasi kabisa deb olinadi. Kabisa yilning so'nggi o'n ikkinchi oyi (zulhijja) 30 kun bo'ladi. Hijriy taqvimda o'ttiz yillik davrlar (1-yildan 30-yilgacha, 31-yildan 60-yilgacha va h.k.) qo'llanadi. Har o'ttiz yillik davrning 2, 5, 7, 10, 12, 15, 17, 19, 21, 24, 27 va 29 yillari kabisadir. Masalan, hijriy 1426-yil kabisamiyo'qmi ekanligini aniqlash uchun undan 30 ga karrali qismi chegirib tashlanadi: $1426 - 30 \times 47 = 1426 - 1410 = 14$, demak, bu yil oddiy ekan, 1427-yilda esa qoldiq 15 chiqadi va kabisa bo'lishini ko'rsatadi.

Ayrim Sharq mamlakatlarida hijriy taqvimning kabisa yillari boshqa usulda ham aniqlangan. Shuningdek, Eronda hijriy-qamariy taqvim bilan bir paytda hijriy-shamsiy taqvim ham qo'llanadi. Unda xronologiya hijrat kunidan boshlanadi, ammo yil uzunligi Quyosh taqvimi bo'yicha hisoblanadi. Yil boshi sifatida bahorgi tengkunlik — Navro'z kuni, oylar esa burjlar bilan deyarli ustma-ust tushadi.

Shuningdek Sharq mamlakatlarida ham yil, ham oy asosiy birlik bo'lgan oy-quyosh taqvimlari qo'llanadi. Taqvim tarixida Umar Xayyom taklif qilgan islohot ham ahamiyatga molik. U o'sha davrda amalda bo'lgan taqvimlar bilan tanishib, ulardagi kamchiliklardan xoli bo'lgan quyosh taqvimini ishlab chiqqan va saljuqiylar sultoni Jaloliddin Malikshoh tomonidan joriy ham qilingan (Yulian taqvimi bo'yicha 1079-yil 15 marta). Ammo sulton vafotidan (1092-yil) keyin amal qilinmay qolib ketgan. Umar Xayyom taqvimida har 33 yildan 8 tasi: 4, 8, 12, 16, 20, 24, 28 va 33-yillar kabisa yil bo'lgan. Bunda bir yil o'rtacha $365 + 8/33 = 365,242424$ kunga teng bo'lib, tropik yildan atigi 19,7 sekundga farq qiladi. Umar Xayyom taqvimini amaldagi taqvimlar ichida eng sodda va anig'i deyish mumkin. Qadimdan turli xalqlar turlicha taqvimlar va xronologiya tizimlaridan foydalangani bir taqvimdagi sanalar boshqa taqvimda qaysi sanaga mos kelishi masalasini o'rtaga chiqargan. Bu masalani hal etishga ayniqsa alXorazmiy, Beruniy va Ulug'bek katta hissa qo'shgan. Xususan, Ulug'bekning „Ziji jadidi Ko'ragoniy“ asarida o'sha davrda Yaqin

Sharq, Xitoy, Yevropada qoʻllangan oʻndan ortiq taqvimlar oʻrtasidagi mutanosiblik bayon qilingan.

Musulmon Sharqi, jumladan Oʻrta Osiyo xalqlari tarixi, klassik va madaniy yodgorliklarida sanalar hijriy-qamariy taqvimda berilgan. Shuning uchun bunday yodgorliklar oʻrganilganda hijriy sanalarni milodiy, yaʼni Yuliy-Grigoriy taqvimiga oʻtkazish masalasiga duch kelinadi. Bir holatda bu masalani taqribiy hal etish — hijriy yilga mos milodiy yilni hisoblash kifoya qilsa, ikkinchi holatda uni aniq hal etish — tayin hijriy sanaga milodiy boʻyicha qaysi kun toʻgʻri kelishini topish lozim boʻladi. Manbahunoslar ishini yengillatish mak, sadida turli mutanosiblik jadvallari tuzilgan. Jadval boʻlmagan taqdirda maxsus qoidadan foydalanish mumkin: hijriy yil N bilan, milodiy yil M bilan belgilansa, u holda: $M=N-S+622$, $N=M-622+ \text{Mu}2622$ " Masalan, manbalarga koʻra Alisher Navoiy hijriy 844-yilning 17 ramazonida tavallud topgan, yaʼni $N=844$. Endi $844:33$ taqriban 25,6 ga tengligi uchun $M=844+622-25,6= 1440,6$. Odatda, bu natija 1440/1441 (yaʼni 1440 yo 1441) koʻrinishda yoziladi. Qoidani bir oz oʻzgartirib, mikrokalkulyatorida hisoblashga moslash mumkin: $M=N*354: 365+622$, $N=Mx365: 354-622$.

Bir taqvimdagi tayin A kunga ikkinchi taqvimda qaysi V kun toʻgʻri kelishini aniqlash lozim boʻlsa, u holda dastavval har ikki taqvim uchun mutanosibliki maʼlum kun — boshlangʻich hisob nuqtasi olinadi. Xususan, hijriy va Yuliy-Grigoriy taqvimlari uchun boshlangʻich nuqta sifatida hijriy 1-yilning 1-muharrami milodiy 622-yil 16-iyulga mos kelishi olinishi mumkin. Soʻng birinchi taqvimga muvofiq A kungacha necha kun oʻtgani hisoblanadi va boshqa taqvimda shuncha kun oʻtsa, qaysi sana chiqishi topiladi .

Shunday qilib, taqvimlar oʻrtasidagi mutanosiblik ularning xronologiyasiga (erasiga) ham bogʻliqdir. Turli xalqlarda ming yillar mobaynida turlicha eralar qoʻllangan. Xitoyda yil hisobi hukmdor Xuan Di podsholigi boshlangan sana — mil. av. 2637-yildan hisoblangan. Qadimgi Misrda yagona uzluksiz yil hisobi boʻlmagan — har bir faraon taxtga oʻtirishi bilan yil hisobi boshidan boshlangan. Qadimgi Bobilda Nabonassar podsholigi boshlangan mil. av. 747 i.dan hisoblangan era qoʻllangan. Yunonistonda xronologiyaga 1-Olimpiada boshlangan yil — mil. av. 776-yil asos qilib olingan. Qadimgi Rimda yil hisobi afsonaviy qahramon Romul shaharga asos solgan sana — mil. av. 753-yildan boshlangan. Keyinchalik imperator Diokletian (Daqʼyonus) hukmdorligi boshlangan eraga oʻtilgan, u mil. 284-yilga toʻgʻri keladi („Daqʼyonusdan (almisokdan) qolgan“ degan ibora shundan kelib chiqqan).

Dunyoning yaratilishi“dan boshlangan eraning bir necha varianti ham bor. Jumladan, qadimgi yahudiy taqvimi boʻyicha dunyoning yaratilishi mil. av. 3761-yil, Vizantiya taqvimi boʻyicha esa mil. av. 5508-yil sodir boʻlgan. Hozirgi vaqtda koʻpchilik mamlakatlarda qabul qilingan yangi era — „Iso Masix tugʻilgan kun“dan boshlangan era qoʻllanadi .

Grigoriy XIII islohoti taqvim vaqtini astronomik vaqtga yaqinlashtirgan boʻlsa ham taqvimning ichki tuzilishidagi oylardagi kunlar soni bir xil emasligi, haftalarning oylar ichida boʻlinib ketishi kabi noqulayliklar saqlanib qolgan. Shuning uchun mukammalroq taqvim loyihalarini ishlab chiqishga urinishlar boʻlgan. Masalan, Hindiston hukumatining tashabbusi bilan taqvimni isloq qilish masalasi 1953-yilda BMTga qoʻyilgan. BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS) doimiy taqvim loyihasini maʼqullagan. Unga koʻra har bir choraqda 13 ta toʻliq yetti kunlik hafta (hammasi boʻlib bir yilda 364 kun) va yil oxirida qoʻshimcha bir kun (31-dekabr oʻrniga) — Tinchlik bayrami kuni belgilangan. Kabisa yillari esa, shuningdek, 6- va 7-oylar orasida yana bir kun — Kabisa yil bayrami qoʻshiladi. Qoʻshimcha kunlar haftalar va oylar hisobga kiritilmaydi (yaʼni ular qaysi oy va haftaning kunlari boʻlishi koʻrsatilmaydi). Bu loyiha boʻyicha har chorakning birinchi oylari (yanvar, aprel, iyul, oktyabr) 31 kundan, qolgan oylar esa roppa-rosa 30 kundan tashkil topishi kerak. Shunda xaftasiga bir kun dam olish kuni hisoblansa, hamma oylardagi ish kunlari soni doimiy — 26 kundan boʻladi. Har bir xalqning milliy bayramlari borligi va dam olish kuni 2 kun kilib belgilanganligi tufayli, bu loyixani ayrim mamlakatlar maʼqullamadi. Shuning uchun 1956-yildan keyin taqvim islohoti oldingy siljimadi. Keyinchalik boshqa taqvimlar loyihalari taklif qilindi, lekin ularni hayotga joriy etish masalasi ochiq qolmoqda.

Taqvim tarixi — insoniyat sivilizatsiyasining uzviy ajralmas boʻlagi. Tashqi olam toʻgʻrisidagi bilimlar koʻpaygan sari va turli davrlarda xalq xoʻjaligi ehtiyojlari bilan bogʻliq

III BO'LIM. ILMİY ANJUMAN MATERIALLARI.....	74
I sho'ba. Zamonaviy fonetika va fonologiyaning dolzarb masalalari	74
Хуррам Рахимов. Фикрлашга ўргатайлик.....	74
Saydaliyev Saidumar. Fonetika darsida xatolar ustida ishlash.....	76
Alimova M.X., Мамадалиев А.М. ЧЕТ ТИЛ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР АҲАМИЯТИ.....	79
Ismailov Yusuf. FONOLOGIK KOMPETENSIYA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING TARKIBIY QISMI SIFATIDA	84
Тошов Зиявуддин Бадриддинович. ФОНОСТИЛИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ.....	86
Шухратхон Имяминова. ТОВУШ ИЛМИНИНГ ДАРҒАСИ	89
Тошов З.Б., Ҳайдаров А.А. О ФЕНОМЕНЕ ПАУЗЫ В СПОНТАННОЙ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ.....	91
Расулов Зубайдулло Изомович, Саидов Хайрулло Шавкатович. ПРИНЦИПЫ ЭКОНОМИИ ФОНАЦИОННОЙ ЭНЕРГИИ.....	96
Babayev Maxmud Tashpulatovich. TALAFFUZ LUG'ATLARI YARATISHDA XALQARO FONETIK ALIFBO (IPA)DAN FOYDALANISH MUAMMOLARI.....	98
Mahmudov Alisher Yo'ldoshevich, Homidova Nafisa Ramazon qizi. NEMIS TILI PROSODIKASIDA SUPERSEGMENTAL MASALALAR TAHLILI.....	101
II sho'ba. Qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslikning dolzarb muammolari	103
M.Begmatov. ILOVA KONSTRUKSIYA SINTAKTIK ALOQANING USLUBIY VOSITASI SIFATIDA.....	103
З.Жуманиёзов. НЕМИСЧА-ЎЗБЕКЧА ЛУҒАТЛАРДА СОҒ ДИПЛОМАТИК ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕРИЛИШИ.....	105
Жўраева Малоҳат Муҳаммадовна. КОГНИТИВ ТИЛШУНОСЛИКДА «КОНЦЕПТ», «ФРЕЙМ» ВА «ГЕШТАЛЬТ» ТУШУНЧАЛАРИ ТЎҒРИСИДА МУЛОҲАЗАЛАР.....	107
Найимов Сади Нарзиевич. НОМШУНОСЛИК СОҲАСИНИНГ ТЕКШИРИШ ОБЪЕКТИ	111
I.Mamasoliyev. MATNNI HOSIL QILUVCHI BIRLIKLAR TARKIBIDAGI ILOVALI ELEMENTLAR	114
Ro'ziev Y.B. VILHELM FON HUMBOLT TA'LIMOTIDA RUHIY QUVVAT BILAN TILNING O'ZARO MUNOSABATI MASALASI.....	116
Xamidova M.H. KALENDAR QANDAY PAYDO BO'LGAN?	119
Sh. Imyaminova. NEMIS TILIDAGI MATNLARDA FRAZELOGIZMLARNING STILISTIK FUNKSIYASI.....	122
Y.B. Ro'ziyev, Z.S.Qosimova. O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA TINISH BELGILARINING QO'LLANISHIGA OID.....	125
D.H. Karimova. DAS WESEN UND DIE BESONDERHEITEN DER KONZEPTE DER VARIABILITÄT UND INVARIANZ IN DER ÜBERSETZUNG.....	127
Y.B. Ruziev, Sh. Halimova. DIE SEMANTISCHE FUNKTION DES VOLLVERBS IM USBEKISCHEN	130
Жўраева Мақсуда Муҳаммадовна. ЁЗМА МАТБУОТ ЖУРНАЛИСТЛАРИ ҲАҚИДА.....	132
G. M. Abishova. NEMIS TILIDAGI DATIV BILAN AKKUZATIV KELISHIGINING QORAQALPOQ TILIDA BERILISHI	135
Д.У. Бердимуратов. Семантико-стилистический анализ концептуально маркированной фразеогруппы (на материале толкового словаря немецкого языка).....	136
Xamidova Muborak Hafizovna. TAQVIM: O'TMISH VA HOZIR	138
Каримова Дилафрўз Ҳалимовна, Нарзиева Дилфуза. АКА-УКА ГРИММ ЭРТАКЛАРИНИНГ ЯРАТИЛИШ ТАРИХИ ВА ЎЗБЕКЧА ТАРЖИМАЛАРИ ХУСУСИДА	139
M.T. Babayev, M.M. Atadjanova. "LUG'AT – TARJIMONNING ASOSIY QUROLI"	142
A.P.Rahmatov. EINIGE GRUNDLEGENDE MERKMALE DER TEMPUSKATEGORIE IM USBEKISCHEN	144
Марупова Гульноз Умарджоновна. ТИПОЛОГИЯ И КЛАССИФИКАЦИЯ ТУРИЗМА.....	147
M.N. Boltayeva. GEOGRAFIK HAQIQATLAR	149
M.F. Furqatova. JADIDCHILIK HARAKATI VA MILLIY TIL RIVOJI MUAMMOLARI	151
G. S. Azamatova. O'zbek va nemis tillari otlarning grammatik kategoriyalari	153

R.Sh. Bozorova, S. Zikirov. YOYANN VOLFGANG GYOTE ASARLARIDA GIDROPOETONIMLAR O'RNI.....	155
S.T.Matmurotova, R.Q.Axmedova. FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TURG'UN IBORALARNING O'XSHASH VA FARQ QILADIGAN TOMONLARI.....	158
N.M. Nazarova. "KONSEPT" TUSHUNCHASIDA LINGVISTIK MA'LUMOTLAR.....	159
F. S. Nasimova. TERMIN VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	161
K.H. Saitova. THE ROLE OF TRANSLATION MISTAKE IN TEACHING INTERPRETATION.....	163
M.C. Мирханова. АНГЛИЙСКИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ..	165
E.B. Jumayev, G.X. Nurullayeva. NEMIS TILIDA SHAXS IFODASI.....	166
N.T. Tabisxanov. Die Adjektive im Werk „Kabale und Liebe“ von F.Schiller.....	168
Xaitova Gulshan Bahadirovna, Kamolova Sitora. O'ZLASHTIRMA GAP VA UNING O'ZGA GAP DOIRASIDA TUTGAN O'RNI.....	170
Г.К. Хожаметова. Построение предложения в английском языке.....	173
Г.К. Хожаметова. Методико-лингвистические принципы анализа фразеологической деривации в английском языке.....	175
M.A. Кучиев. ИЛОВАЛИ ЭЛЕМЕНТЛАР СИФАТИДА ҚЎЛЛАНГАН ФРАЗЕОЛОГИЗМ ВА БАДИИЙ ТАСВИР ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС СТИЛИСТИК ВАЗИФАЛАРИ.....	177
Badalov Feruz Nuriddinovich. NEMIS TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING ONLAYN AXBOROT NASHRLARIDAGI TUTGAN O'RNI.....	178
Xolova Shahnoza Davronovna. FRAZEMA VA UNING TADQIQ ETILISH TARIXI.....	180

3-sho'ba. Zamonaviy tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik: an'ana va innovatsiyalar.....182

Зоҳиджон Садиков. АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИ ОЛМОН ТИЛИДА.....	182
Д.З.Ражабов. ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА ПОЭТИК НУТҚ ИФОДАСИ.....	185
Adizova Obodon Istamovna. FOLKLORSHUNOSLIKNING JANRIY TARKIBI VA TIZIMI XUSUSIDA.....	188
Adizova Obodon Istamovna. L'ÉTUDE SYSTÉMATIQUE DES MOEURS ET DES COUTUMES ...	190
Karimova Dilafro'z Halimovna, Axmadova Xusnora Narzillo qizi. AKA-UKA GRIMM ERTAKLARINING YARATILISH TARIXI VA O'ZBEKCHA TARJIMALARI XUSUSIDA.....	194
Maxmudova Muattar Maxsatilloevna, Xayitova Mavjuda. Y.V.GYOTE "G'ARBU SHARQ" DEVONINING MAQSUD SHAYXZODA VA S.S.BUXORIY TARJIMALARIDAGI FARQLAR VA MUSHTARAKLIK.....	196
Hayitova Mavjuda. S.S.BUXORIY IJODIDA SHARQU G'ARB MAVZUSI VA "MAG'RIBU MASHRIQ" DEVONI TARJIMASI HAQIDA.....	199
Babayev Otabek. ÜBERSETZUNGEN UND AUSGABEN VON JALOLIDDIN RUMIS WERKEN .	202
Babayev Otabek Abdikarimovich, Zokirov Jamshid Kholmat Ugli. The history of interpreting.....	204
Jumayev Akmal Axmatovich. QALDIRG'OCH OBRAZI O'ZBEK VA NEMIS XALQ ERTAK VA AFSONALARIDA.....	207
Jabbarova Maloxat Xamdamovna. ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ ПИСАТЕЛЯ НА ИЗОБРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОГО ОБРАЗА.....	209
Babayev Otabek, Masterstudentin Anna Angelika Janning, Masterstudentin Anne Charlotte Blasel. FUNKTIONEN UND ROLLE DER LITERARISCHEN ÜBERSETZUNG IM 21. JAHRHUNDERT	212
Xudoyev Samandar Samatovich. O'ZBEK LATIFALARINING TARJIMA EVOLYUTSIYASI.....	218
Bozorova Muxabbat Abduraxmonovna. HAYNRIX HAYNE SHE'RLARI O'ZBEKCHA TARJIMASIDA SHARQONA OBRAZ VA MOTIVLAR IFODASI.....	220
Бозорова Мухаббат Абдурахмановна. ВЫРАЖЕНИЕ ВОСТОЧНЫХ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОМ ПЕРЕВОДЕ СТИХОТВОРЕНИЙ ГЕНРИХА ХЕЙНА.....	222
Tolibjanov Bahromjon Maxmudxanovich. MARK TVEN YUMORISTIK ASARLARI TARJIMASIDA MUHOJAT SHAKLLARINING BERILISHI.....	224
Jumayeva Shahlo Shokirovna. MILLIY KOLORIT TERMINI, UNING ADABIYOTSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA UNING QAMROV DOIRASI.....	225
Babayev Maxmud Tashpulatovich, Bafoev Mirfayz Baxshilloevich. MADANIYATLARARO MULOQOTDA TARJIMANING O'RNI.....	227
Babayev Maxmud Tashpulatovich, Ashirova Rayhon Anvar qizi. ERTAKLAR VA BADIY ASARLARNI TARJIMA QILISH MAHORATI.....	229
Xurshida Hasanova. Fantaziya janridagi asarlarining ilmiy va nazariy qirralari.....	231
Xamdamov Oybek Abdulxayevich. "O'TKAN KUNLAR" ROMANI TARJIMALARI TADQIQI.....	233